



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 400 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixologik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdoo Ashirgul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari...	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafruz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida)	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Леоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
Ruziyeva Kamola Akhtamovna	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
Abdullayev O'tkir Sadullayevich	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
Avezov Davronbek Soburovich	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
Erkaboyeva Nigora Shermatovna	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
Nazarov Alisher Narimanovich	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	171
Qodirov Jahongir Neymat o'g'li	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	176
Qosimova Xolida Nabiyevena	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
Raxmatullayeva Durdona Fazliddin qizi	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling	182
Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababyan I. R.	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
Toshiboltayeva Nodira	
Роль интерактивного лингвокультурологи-ческого пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений	191
Рустамова Ферузахон Махмуджановна	

Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyeвна	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyozda, Keldiyorova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni	278
Sultonova Marxabo	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	283
Akramova Fotimabonu Kurbonovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	288
Axmedov Muslimjon Usmonovich	
Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	295
Djumabayeva Muqaddas	



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o’rgatishda 4K ko’nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo’nalishi talabalarini o’qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o’g’li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta’lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o’rni.....	314
<i>Jo’rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o’rganilishi.....	318
<i>Jovlijev Jo’rabek Alisher o’g’li</i>	
Jazo muddatini o’tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzotov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta’lim jarayonida o’yin texnologiyalarini qo’llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta’lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug’bek Abduljabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o’rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o’sishning mohiyati.....	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko’nikmalarini baholashda generativ sun’iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashtirish arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultonov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta’lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o’quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahrlashning biologik xususiyatlari, toksikologik ta’siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo’llanilishi.....	365
<i>To’xtamurodova Feruza</i>	
Pedagogik uslublarning o’qituvchilarning kasbiy rivojlanish bosqichlaridagi xususiyatlari	369
<i>Turayeva Dilafruz Rustamboyevna</i>	
Sun’iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta’limda fizika fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish	375
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya maqsadlarini o’yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish.....	379
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarida shaxsiy qadriyatlarning kasbiy karyerani rejalashtirishdagi ijtimoiy-psixologik ahamiyati	384
<i>Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	388
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	393
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYAT FENOMENINING PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

Jovliyev Jo'rabek Alisher o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning shaxs kamoloti hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, qadriyatlar tarbiyasiga doir mahalliy va xorijiy pedagogik tadqiqotlar tahlil qilinib, zamonaviy ta'lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik yondashuvlari hamda ularni ona tili ta'limi mazmuniga integratsiya qilishning ilmiy asoslari ochib berilgan. Tadqiqotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, qadriyat fenomeni, aksiologiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik tadqiqotlar, qadriyatlar tarbiyasi, ona tili ta'limi, aksiologik yondashuv, shaxs kamoloti.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of studying the phenomenon of national and universal values in pedagogical research. It examines the essence and content of national and universal values, as well as their role in personality development and moral education. In addition, the paper reviews national and international pedagogical studies on values education, highlighting contemporary pedagogical approaches to the formation of values and the scientific basis for integrating them into the content of mother tongue education. The study also substantiates the pedagogical significance of fostering national and universal values in a harmonious and integrated manner.

Key words: national values, universal values, value phenomenon, axiology, moral education, pedagogical research, values education, mother tongue education, axiological approach, personality development.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы исследования феномена национальных и общечеловеческих ценностей в педагогических исследованиях. Раскрыты сущность и содержание национальных и общечеловеческих ценностей, а также их роль в развитии личности и духовно-нравственном воспитании. Кроме того, проведён анализ отечественных и зарубежных педагогических исследований, посвящённых ценностному воспитанию, освещены современные педагогические подходы к формированию ценностей и научные основы их интеграции в содержание обучения родному языку. В исследовании также обосновано педагогическое значение гармоничного формирования национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: национальные ценности, общечеловеческие ценности, феномен ценностей, аксиология, духовно-нравственное воспитание, педагогические исследования, ценностное воспитание, обучение родному языку, аксиологический подход, развитие личности.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlari kuzatilayotgan bugungi kunda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor masalalardan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda ham bu borada bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda va olib borilayotgan ishlarni muayyan tizimga solish va samaradorligini oshirish masalalari ko'rilmqda. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga erishishda o'quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim omillardan ekanligi qayd etilgan.

Qadriyatlar insoniyat madaniyatining markaziy kategoriyasi sifatida qadimdan falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlarining tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Har bir xalq, sivilizatsiya va falsafiy maktab qadriyatlar mohiyatini o'z tarixiy, diniy va ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib izohlagan. Shuning uchun ham qadriyatlar haqidagi qarashlar G'arb, Sharq va Markaziy Osiyo tafakkurida turli, ammo bir-birini to'ldiruvchi jihatlarida shakllangan.



Hayotimizning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “o'zlikni anglash”, “milliy iftixor”, “milliy ong”, “milliy g'urur”, “vatanparvarlik” kabi tushunchalarga duch kelamiz. Bu tushunchalar ezgulik sari farovon hayot barpo etishda xalqimizni birdam va hamjihatlikda harakat qilishga yo'naltiradi. O'zbek mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq.

“Qadriyat” atamasi arabcha ildizga ega bo'lib, o'zbek tilida u asosan qiymat, ahamiyat, qimmatli narsa yoki xalq ma'naviy-madaniy boyliklari kabi mazmunlarni ifodalaydi. Lingvistik jihatdan ushbu tushuncha “qadr” so'ziga borib taqaladi va unga ko'plik hamda umumlashtiruvchi ma'no beruvchi “-iyat” qo'shimchasining qo'shilishi natijasida shakllangan deb qaraladi. Shu bois “qadriyatlar” biror hodisa, narsa yoki g'oyaning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, qiymati hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ifodalovchi umumlashma kategoriya sifatida talqin etiladi ^[1].

O'zbek tilining izohli lug'atida: “Qadriyat (qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) - voqealikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha” sifatida e'tirof etilgan ^[2].

“Qadr” leksemasi esa mazmunan miqdor, daraja, o'lchov kabi tushunchalar bilan bir qatorda, muayyan obyekt yoki hodisaning jamiyat hayotidagi o'rni, uning zaruriylik darajasi hamda inson faoliyatidagi muhimlik holatini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlar tizimi inson va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy munosabatlarni belgilovchi, ijtimoiy ongda shakllanadigan hamda tarixiy-madaniy tajriba asosida rivojlanib boradigan muhim falsafiy-pedagogik kategoriya sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlar M. A. Dyachkova, L. V. Surjenko, John Dewey va Abraham Maslowning qadriyatlar, aksiologiya, shaxs rivojlanishi hamda qadriyatga yo'naltirilgan ta'limga oid ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Xususan, M. A. Dyachkova qadriyatlarni shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini belgilovchi asosiy pedagogik kategoriya sifatida asoslagan bo'lsa, L. V. Surjenko qadriyatlarni shaxs motivatsiyasi va ijtimoiy xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik fenomen sifatida talqin etadi.

John Deweyning pragmatik ta'lim konsepsiyasida qadriyatlar o'quvchining ijtimoiy tajribasi va faoliyati orqali shakllanishi ilmiy asoslangan, Abraham Maslow esa umuminsoniy qadriyatlarni shaxsning o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyojining eng yuqori bosqichi sifatida izohlaydi.

Mazkur ilmiy qarashlar milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik mohiyatini ochib berish hamda uni ona tili ta'limi mazmuniga integratsiya qilishning nazariy asoslarini belgilashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, aksiologik, kompetensiyaviy va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, pedagogik va falsafiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, hujjatlarni o'rganish, umumlashtirish hamda interpretatsiya metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik mazmun-mohiyati, uning shaxs kamoloti va ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni, shuningdek, qadriyatlarni shakllantirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik asoslari umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

M. A. Dyachkova pedagogikada “qadriyat” tushunchasini inson shaxsining ma'naviy-axloqiy rivojlanishini belgilovchi asosiy kategoriya sifatida talqin qiladi. Uning yondashuviga ko'ra, qadriyatlar insonning xulq-atvori, hayotiyo'nalishi va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi ichki ma'naviy regulyator vazifasini bajaradi. Muallif “ma'naviy-axloqiy qadriyatlar”ni shaxs ongida shakllanadigan va uning faoliyatiga yo'nalish beruvchi ideallar tizimi sifatida ko'radi. Ushbu qadriyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirilib, o'quvchilarning axloqiy pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va insonparvarlik qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Dyachkova ta'lim tizimida qadriyatlarni shakllantirishni faqat bilim berish emas, balki shaxsiy munosabat, hissiy qabul qilish va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgan yaxlit pedagogik jarayon sifatida ko'radi. Demak, qadriyatlar ta'limda kognitiv, emotsional va faoliyatli komponentlar birligi orqali o'zlashtiriladi ^[3].

Qadriyatlar tizimining tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning har biri shaxs rivojining muayyan jihatini ta'minlaydi. Jumladan, ma'naviy-axloqiy tarkibiy qism o'quvchilarda ezgulik, halollik, vijdonlilik kabi fazilatlarni rivojlantirishga yo'naltirilsa, madaniy-tarixiy tarkibiy qism milliy meros va an'analarni anglashga xizmat qiladi. Kommunikativ tarkibiy qism esa nutq madaniyati, o'zaro hurmat va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish orqali qadriyatlarining amaliy namoyon bo'lishini ta'minlaydi.



Pedagogik jihatdan qadriyatlar tizimi ta'lim mazmunining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi qadriyatlarni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy faoliyat, muloqot va shaxsiy tajriba orqali o'zlashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf ona tili darslarida matnlar, til birliklari, ijodiy topshiriqlar va nutqiy mashqlar vositasida qadriyatlarni anglatish o'quvchining fikrlash jarayoni bilan ma'naviy rivojlanishini uyg'unlashtiradi.

Shu bois qadriyatlar tizimi ta'lim jarayonida o'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish bilangina cheklanmay, uning shaxsiy pozitsiyasi, ma'naviy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi yaxlit pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi esa barkamol shaxs tarbiyasining muhim sharti bo'lib, boshlang'ich ta'limda qadriyatga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni amalga oshirishning nazariy asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, qadriyatlar inson xulq-atvorini yo'naltiruvchi ichki motivlar tizimi bo'lib, u hayotiy ehtiyojlarni qondirishda vositachilik qiluvchi omil, ijtimoiy subyektni muayyan harakatga undovchi rag'batlantiruvchi kuch hamda shaxs faoliyatining maqsad sari yo'naltirilishini ta'minlovchi ideal sifatida talqin etiladi. Shu bois qadriyatlar ijtimoiy ong va shaxsiy dunyoqarash shakllanishida muhim o'rin egallovchi, insonning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi.

L. V. Surjenko o'z tadqiqotida qadriyatlar shaxsning falsafiy va psixologik tabiati bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning yondashuviga ko'ra, qadriyatlar inson shaxsining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va uning xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayonlari hamda hayotiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda qadriyatlar faqatgina tashqi ijtimoiy normalar yig'indisi emas, balki shaxsning ichki psixik tuzilmasida shakllangan, uning ongi va faoliyatini yo'naltiruvchi barqaror ustanovkalar tizimi sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan qadriyatlar insonning dunyoqarashi, ehtiyojlari va motivlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, L. V. Surjenko qadriyatlarning ikki tomonlama tabiatga ega ekanini qayd etadi: ular bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy (jamiyat tomonidan shakllantirilgan), ham shaxsiy (individd tomonidan qabul qilingan va interiorizatsiya qilingan) mazmunga ega ^[4]. Ana shu birlik qadriyatlarni shaxsning xatti-harakati va faoliyatini boshqaruvchi muhim psixologik resurs sifatida namoyon qiladi.

Muallif ta'kidlashicha, qadriyatlar shaxsning motivatsiya tizimida markaziy o'rin tutadi va ular orqali inson o'z hayotiy maqsadlarini belgilaydi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi hamda o'z faoliyatini ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida tashkil etadi.

Mazkur yo'nalishda dunyo olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan. Jumladan, amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey (1859-1952) qadriyatlar masalasiga pragmatizm nuqtai nazaridan yondashgan ^[5]. Uning fikricha, qadriyatlar insonning tajribasi, faoliyati va ehtiyojlari natijasida shakllanadi hamda doimo ijtimoiy hayot jarayonida yangilanib boradi. J. Dewey qadriyatlarni dinamik kategoriya, ya'ni o'zgaruvchan, amaliy tajriba asosida baholanadigan hodisa sifatida talqin qiladi. Shu bois u "haqiqiy qadriyat"ni inson tomonidan hayotda sinalgan, ijtimoiy foydalilikka ega bo'lgan qadriyat deb izohlaydi.

J. Dewey falsafiy merosida qadriyatlar mutlaq va o'zgarmas kategoriya sifatida emas, balki insonning ijtimoiy-amaliy tajribasi asosida shakllanadigan dinamik hodisa sifatida talqin etiladi. Uning qadriyatlarga oid qarashlari pragmatizm falsafasi tamoyillariga tayanib, inson faoliyati va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib boradigan ma'naviy mezonlarni ifodalaydi. Uning fikriga ko'ra, qadriyat inson ongidan mustaqil holda mavjud bo'lgan tayyor me'yor emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda amaliy faoliyat jarayonida yaratiladigan va tajriba orqali sinovdan o'tadigan ma'naviy konstrukt hisoblanadi ^[6].

J. Dewey falsafasida "tajriba" tushunchasi markaziy o'rin tutib, insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari jarayonida o'ttirilgan tajriba qadriyatlarining shakllanishi va qayta ko'rib chiqilishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Uning ta'limda qadriyatlarni tarbiyalash modeli qadriyatlarni statik axloqiy me'yor sifatida emas, balki o'quvchining tajribasi, faolligi va ijtimoiy hamkorligi orqali doimiy ravishda rivojlanib boradigan ma'naviy tizim sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan va qadriyatga asoslangan ta'limni amalga oshirish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratadi.

A. Maslow (1908-1970) qadriyatlar ierarxiyasini inson ehtiyojlari tizimi bilan bog'lab, eng yuqori bosqichda umuminsoniy qadriyatlar (haqiqat, go'zallik, adolat, sevgi)ni joylashtiradi ^[7].

A. Maslowning qadriyatlar haqidagi bu qarashlari uning mashhur "ehtiyoljar ierarxiyasi nazariyasi" (Hierarchy of Needs)ga asoslanadi. U qadriyatlarni insonning motivatsion tizimi, ya'ni ehtiyojlarning tabiiy rivojlanish bosqichlari bilan bevosita bog'laydi.

Maslow fikricha, insonning barcha qadriyatlari va ma'naviy intilishlari u yashayotgan muhit, xavfsizlik darajasi, ijtimoiy aloqalari va o'zini namoyon etish ehtiyoji bilan belgilanadi. Shu sababli u qadriyatlarni inson ehtiyojlarining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi orqali tushuntiradi.

Maslowning bu fikrni ilgari surishiga sabablar:

- Inson tabiatini ijobiy va ijodkor kuch sifatida talqin etishi.



Maslow avvalgi psixologik yo'nalishlardan farqli ravishda (ayniqsa, psixoanaliz va behaviorizmdan) insonni faqat muammoli yoki passiv mavjudot sifatida emas, balki ijodkor, o'sishga intiluvchi shaxs sifatida ko'radi. Unga ko'ra, inson hayotida qadriyatlar uning ichki o'sish jarayonining natijasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenini pedagogik tadqiqotlar nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatdiki, qadriyatlar shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini ta'lim jarayoniga ilmiy asosda integratsiya qilish o'quvchilarda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat hamda qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Shuningdek, pedagogik va aksiologik tadqiqotlar tahlili qadriyatlar tarbiyasini samarali tashkil etishda aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan hamda integrativ yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qadriyatlarni ta'lim mazmuniga tizimli integratsiya qilish o'quvchilarning ma'naviy madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati va umuminsoniy fazilatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot yakunida milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenini o'rganishga oid ilmiy-nazariy qarashlarni yanada boyitish, qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish, qadriyatlar tarbiyasini fanlar, xususan, ona tili ta'limi mazmuniga samarali integratsiya qilish hamda qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarurligi asoslandi. Mazkur yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, milliy o'zlikni anglashini rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона - Ҳ / Бешинчи жилд. 5 жилдли. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов. -Т.: -Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2008. - 207-б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд, 2008. - Б. 207.
3. Дьячкова М.А. Понятия ценность и духовно-нравственные ценности в педагогике // Сибирский педагогический журнал. 2007. №12. - С. 146.
4. Сурженко Л.В. Ценности личности: философский и психологический анализ понятия // <https://cyberleninka.ru/article/n/tsennosti-lichnosti-filosofskiy-i-psihologicheskij-analiz-ponyatiya>.
5. Dewey, Theory of Valuation, 1939.
6. Дьюи Д. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ. Н.М. Никольской. - М.: Совершенство, 1997.- 208 с.
7. Maslow, Motivation and Personality, 1954.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.